

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 210 (1271), 2024-yil 17-oktabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

YO‘LLARNI ILMGA ASOSLANIB,
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA
QURISHGA E‘TIBOR QARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 16-oktabr kuni yo‘l xo‘jaligi sohasida qilingan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Avtomobil yo‘llari — iqtisodiyotning “qon tomiri”. Shu bois, mamlakatimizda bu sohaga alohida e‘tibor qaratilib, ish ko‘lami va sifati oshirib borilmoqda. Xususan, ilgari 2009-2016-yillarda 9 trillion so‘m evaziga ming kilometrdan ko‘proq yo‘l qurilgan va 20 ming kilometri ta‘mirlangan bo‘lsa, so‘nggi sakkiz yilda bu ko‘rsatkichlar 6 barobargacha o‘sgan. Ya‘ni sohaga 58 trillion so‘m ajratilib, 2 ming kilometr yo‘l barpo etilgan, 100 ming kilometri ta‘mirlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi qaroriga muvofiq, yo‘l xo‘jaligi tizimi yanada takomillashtirildi. Xususan, loyihalash, qurish, ekspluatatsiya uchun mas‘ullar aniq belgilab qo‘yildi, buyurtmachi va pudratchi funksiyalari bir-biridan ajratildi.

Yo‘llarni ilmga asoslanib, zamonaviy yondashuvlar asosida qurishga e‘tibor kuchaydi. Masalan, loyiha hujjatlarining namunaviy andazalaridan voz kechilib, har bir hududning geologik va ekologik xususiyatidan kelib chiqish usuliga o‘tiladi. 1 ming 700 ta maxsus texnika xarid qilinib, yo‘l xo‘jaligi korxonalarining ta‘minot darajasi oshirildi. Yangi turdagi asfalt-beton, sement-beton qoplamalar joriy etildi.

Natijada sifat ham o‘zgarayapti. Yangi qurilgan yo‘llarning ekspluatatsiya muddati 15-20 yil bo‘ladi. Ularning holati 42 turdagi ko‘rsatkich bo‘yicha tekshirib boriladi. Jahon bankining grant mablag‘lari

hisobidan olib kelingan texnikalar yo‘lning fizik xossalari baholash hamda yer ostidan o‘tgan kommunikatsiya tarmoqlari holati qoplamaning buzmaganda tekshirish imkonini beradi.

Ko‘chalardagi obodlik “Yashil makon” dasturining, umuman, madaniyatimizning bir qismi. Har mavsum ularning ikki chetida ko‘chatlar ekilmoqda. Shuningdek, daraxtlarni parvarishlash uchun yo‘llar bo‘yidagi yer maydonlarini ijaraga berish joriy etildi.

Taqdimotda sohadagi loyihalar va rejalar haqida axborot berildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tahliliga ko‘ra, sifati yo‘llar O‘zbekiston iqtisodiyotining kamida 2 foiz o‘shishiga turtki beradi. Bugungi kunda xalqaro moliya tashkilotlari bilan 729 kilometr yo‘lni rekonstruksiya qilish bo‘yicha 6 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Jumladan, yaqin kunlarda “Qo‘ng‘iroq — Beynau” yo‘nalishidagi 240 kilometr yo‘l foydalanishga topshiriladi. Shuningdek, Guliston — Andijon, Dushanbe — Termiz, Buxoro — Turkmanboshi, Urganch — Hazorasp yo‘llarining muayyan qismlari qayta quriladi.

Sohaga xususiy sektor vakillari ham keng jalb qilinmoqda. Hududlardagi jami 260 kilometr yo‘llarning ekspluatatsiyasi autsorsing asosida tadbirkorlarga berildi. Osiyo taraqqiyot banki loyihasi doirasida 841 kilometr yo‘l qurilishida ilk bor to‘liq mahalliy pudratchilar qatnashishiga kelishildi.

Davlatimiz rahbari sohadagi muhim vazifalarni ko‘rsatib o‘tdi.

— O‘zbekistonning geografik joylashuvini e‘tiborga olsak, tashqi savdoda xalqaro yo‘llarning ahamiyati juda katta. Shu bois, Andijon bilan Qo‘ng‘iroqni, Termiz bilan Toshkentni bog‘laydigan jami 4 ming kilometrlik xalqaro yo‘llarimiz eng yuqori talablarga javob berishi shart, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Toshkent — Samarqand va Toshkent — Andijon oraliqidagi pulli yo‘l loyihalarini jadallashtirish, ularni qatnov darajasi yuqori bo‘lgan uchashtalarda qurish zarurligi qayd etildi. Bunday hollarda muqobil bepul yo‘l mavjud bo‘lishi alohida qonun bilan belgilanadi.

Bugungi kunda 4 ming 700 ta ko‘prik ta‘mirlab holatda. Uch yillik dastur ishlab chiqib, ularni bosqichma-bosqich ta‘mirlash vazifasi qo‘yildi.

Hududlarda yo‘l bo‘yi infratuzilmasi rivojlantirilib, savdo va xizmatlar tashkil qilinmoqda. Taqdimotda aytilganidek, bunga qo‘shimcha qariyb 4 ming kilometrlik xalqaro avtomagistralarda 70 ta servis majmuasi barpo etiladi.

Yo‘l va suv tarmoqlari kabi infratuzilmaviy loyihalarda xalqaro moliya institutlari bilan yaqindan ishlash, xorijiy konsultantlarni jalb etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘ZA

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS
QONUNCHILIK PALATASI
VA MAHALLIY
KENGASHLAR DEPUTATLARI
SAYLOVI KUNISAYLOV
2024
27-OKTABR
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Mazkur maqola O‘zbekiston Ekologik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e‘lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

Munosabat

ENERGIYA RESURSLARIDAN
OQILONA FOYDALANISH
BO‘YICHA TOSHKENT VILOYATI
NAMUNASI YARATILMOQDA

Energetika iqtisodiyotning yetakchi sohasidir. Jamiyat rivoji, mehnat unumdorligi, aholi farovonligi hamda hayot sifati ko‘p jihatdan mazkur sohaning buguni va istiqboliga bog‘liq. O‘zbekistonning boy energetika imkoniyati hamda samarali davlat boshqaruvi suv-energetika resurslari va uglevodorod xomashyosidan oqilona foydalanish, elektr energiyasiga talabni to‘liq ta‘minlash imkonini bermoqda.



Mamlakatimizda 2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta‘minlash konsepsiyasi qabul qilingan. Uning asosiy maqsadi elektr energiyasiga oshib borayotgan talabni raqobatbardosh narxlarda qoplash, elektr stansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, yuqori samarali energiya ishlab chiqarish texnologiyalariga asoslangan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishdan iborat.

Shuningdek, konsepsiyada elektr energiyasini hisobga olish tizimini takomillashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish bilan yoqilg‘i-energetika resurslarini diversifikatsiya qilish orqali mamlakat elektr energetikasi tarmog‘ini jadal rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar ham belgilangan.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston tashabbuslari amalda

ISLON - TINCHLIK VA EZGULIK DINI
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2024-YIL 15-OKTABR, TOSHKENTXALQARO MAYDONDAGI
TINCHLIK VA
EZGULIK TARG‘IBOTCHISI

Yangi O‘zbekiston ma‘rifat mayog‘ini baland tutib, dunyo xalqlarini ezgulik, tinchlik va birodarlikka chorlamoqda! Albatta, bu bejiz emas. Buyuk o‘zbek yo‘li doim ma‘rifat, umuminsoniy manfaatlar ustiga qurilgan. Tarixdan yaxshi ma‘lum, ilgari ham e‘tiqod, qarashlar o‘rtasida turli ziddiyatlar ko‘p uchragan. O‘sha davrlarda ham ulug‘ alloma ajdodlarimiz o‘z ilmiy salohiyati, bilim va tafakkuri, ma‘rifatparvarligi bilan ularga munosib javob bergan.



Zamonamizda turfa ziddiyatlar yana avj ola boshladi. Nazarimizda dunyo ilgari hech qachon ezgulik va ma‘rifatga hozirgidek tashna bo‘lmagan. Negaki avval ziddiyatlar, urushlar muayyan hudud, mintaqadagina sodir bo‘lgan. Hozirgi global dunyoda esa nafaqat qurolli to‘qnashuvlar, balki mafkuraviy kurashlar ham chegara bilmayapti. Bunday vaziyatda barcha o‘z manfaatidan kelib chiqib ish ko‘rishi bor gap. Ana shunday tahlikali davrda umuminsoniy manfaatlarni himoya qilib, tinchlik, do‘stona aloqalarga asoslangan siyosat yuritishga hamma davlatlar ham qodir emas. Chunki bunday vaziyatda egoistik qarash normal holatga aylanadi.

Shukrki, yurtimizda ulug‘ ajdodlar yo‘li tanlangan. Biz dunyoga ezgulikni targ‘ib etamiz va shu orqali

insoniyatni birdamlik, tinchlik hamda ma‘rifatga chorlaymiz.

Buni davlatimiz rahbari BMT minbaridan turib baralla aytgan, dunyo hamjamiyati bu chaqiriqqa labbay deya javob bergan edi. Ushbu tashabbus natijasi o‘laroq, joriy yilning 15-16-oktabr kunlari Toshkent va Xiva shaharlarida “Islom — tinchlik va ezgulik dini” mavzusida nufuzli xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Konferensiyaning to‘rtinchi sho‘basi Xiva shahrida bo‘lib o‘tdi. Unda Saudiya Arabistoni, Misr, Turkiya, Jordaniya, O‘mon, Rossiya, AQSH, Fransiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Hindiston va Pokiston kabi

22 mamlakatdan 70 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilot rahbarlari, din arboblari, muftiylar va taniqli ulamolalar ishtirok etdi. Ma‘rifat mayog‘i sari insoniyatni chorlayotgan mamlakatda bunday mehmonlarga tinchlik-totuvlik, do‘stlik va hamjihatlik elchilari, deya qarash tabiiy. Zero, islom dini odamzodga tinchlik va omonlik dini sifatida yuborilgan buyuk ta‘limotdir. Ammo barcha davrlarda bo‘lganidek, uning asiyatini buzib talqin qilish, insonlar e‘tiqodidan o‘z manfaatini yo‘lida foydalanish doim uchray turadi. Bunday g‘ayriqarashlarga qarshi kurashda esa faqat ilm va ma‘rifatga suyanish mumkin.

Davomi 6-betda

Qaror va ijro

SOTIB OLISH EMAS,
BALKI ICHKI IMKONIYATLARNI
TO‘LIQ ISHGA SOLISH SIYOSATISholichilikdagi loyihalar shunga
yo‘naltirilgani bilan ahamiyatlidir

Bugun global iqlim o‘zgarishi tadqiqotchilar zimmasiga, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi sohasida yirik innovatsion loyihalarga ustuvor ahamiyat berish, mamlakatlar zimmasiga esa ularni har taraflama qo‘llab-quvvatlash vazifasini qo‘ymoqda. Jumladan, dunyoning qator yetakchi olimlari 2030-yilga kelib, sholi yetishtirishda qanday o‘zgarishlar bo‘lishi mumkinligini aniqlash va qaysi yo‘nalishlarga ahamiyat berish uchun kompleks nazariy tadqiqotlar o‘tkazgani boisi shunda. Mazkur jarayonda 31 mamlakatdan 101 mutaxassis ishtirok etgan. Ayni paytda ular tomonidan asosiy tadqiqot mavzularini yangilik va dolzarbligidan kelib chiqqan holda dasturlashtirish ishlari boshlangan.

Global iqlim o‘zgarishi, kutilmagan kataklizmlar, qurg‘oqchilik, turli siyosiy mojarolar oziq-ovqat xavfsizligi borasida tashvish uyg‘otmoqda. Jahon bozorida narxlar keskin o‘shishi va eksportni cheklash tendensiyasi hukm surmoqda.

Bundan tashqari, tuproq unumdorligi pasayishi, degradatsiyasi, sho‘rlanishi, ekillayotgan ekinlarning tur, nav va yetishtirish texnologiyalari hozirgi sharoitga mos kelmasligi hosildorlikda yaqqol

namoyon bo‘lyapti. Shulardan kelib chiqib, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) dunyoda oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish emas, balki har bir davlat ichki imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish siyosatini yuritishini jadal targ‘ib qilmoqda. Zero, bu siyosat oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini samarali yumshatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Davomi 4-betda



Munosabat



Sadriiddin TUROBJONOV,
akademik

Boshlanishi 1-betda

Konsepsiyadagi asosiy masalalarning bajarilishi energiya samaradorligini oshirish, energetika xavfsizligini ta'minlash va boshqa qator muammolarning hal qilinishini talab etadi. Eng avvalo, sohadagi muhandis kadrlarning ilmiy zamonaviy texnologiyalar hamda xorijiy tajribani o'zlashtirish darajasi va tashabbuskorligi bilan bog'liq.

Hujjatning eng muhim bandlaridan biri shuki, iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish bilan birga energiya sarfini kamaytirish, iste'molchilarning elektr energiyasidan oqilona foydalanishini rag'batlantirish bo'yicha iqtisodiy mexanizmlarni joriy etishni nazarda tutadi. Shuningdek, sohadagi jarayonlarni tahlil qilib borish, monitoring va energiya auditori o'tkazish, kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda energiya sarfining solishtirma qiymatini kamaytirish asosida mahsulot tannarxini pasaytirib, raqobatbardoshligini oshirish asosiy masaladir.

Prezidentimiz ikki kun davomida Toshkent viloyatiga qilgan tashrifi mobaynida bir nechta obyektlarda bo'ldi. Yangi ishlab chiqarish loyihalari bilan tanishib, bir qanchasini ishga tushirib berdi. Jumladan, Yangiyo'l tumanidagi "Tinchlik" kichik sanoat zonasidagi korxonalar

ENERGIYA RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH BO'YICHA TOSHKENT VILOYATI NAMUNASI YARATILMOQDA

hudud iqtisodiyoti ravnaqiga munosib hissa qo'shadi. Xususan, bu yerdagi metall konstruksiyalar, yuqori bosimga chidamli rezervuarlar, yuk ko'taruvchi kranlar, burg'ilash uskunalar, payvandlash elektrodleri, metall eshik va elektr qutillar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Enter Steyel" korxonasi 40 million dollarlik to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya mahsulidir. Korxonada 1 ming 500 kishini ish bilan ta'minlash imkoniga ega. Zarur mutaxassislar "Amaliy monomarkaz"da tayyorlanadi. O'quv xonalari va laboratoriyalar zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Ta'lim dasturi esa Toshkent davlat texnika universiteti bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

Albatta, ilmiy va amaliyot uyg'un joyda rivojlanish, yangilanish bo'ladi. Ish unumdorligi ortadi. "Enter Steyel"dagi ishlar ham shu hamkorlik samarasidir. Toshkent davlat texnika universiteti jamoasi ushbu viloyat bilan yaqindan hamkorlik qilib keladi. Gap shundaki, Prezidentimiz 2024-yil 27-avgustdagi videoselektor yig'ilishida mutasaddilarga hududlarda elektr energiyasidan oqilona foydalanish, uning iste'molini monitoring va energiya auditoridan o'tkazish vazifasini yuklagan edi.

Ushbu topshiriqlar ijrosi doirasida Toshkent viloyatidagi o'rganish ishlarini markazlashgan holda nazorat qilish va muvofiqlashtirish maqsadida oltita yo'nalish bo'yicha mamlakat darajasidagi ishchi guruh tashkil etildi va mas'ullar belgilandi. Joriy yilning 10-sentabridan viloyatning 22 ta tuman va shahar elektr ta'minoti samaradorligi joriy holatini o'rganish maqsadida energetika sohasi uchun kadrlar tayyorlovchi 7 ta oliy ta'lim muassasasi, jumladan, Toshkent davlat texnika universiteti professor-o'qituvchilaridan iborat ishchi guruhlar shakllantirilib, ularning faoliyati bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berildi. Ayni paytda universitetimizning 137 professor-o'qituvchisi, olimlari va talabalaridan iborat ishchi guruh viloyatning 11 ta tuman va shahrida o'rganish ishlarini olib bormoqda.



Ishchi guruhlar o'rganishida yirik iste'molchilar hamda elektr tarmoqlarining energiya samaradorligi tahlil qilinib, yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish korxonalarining texnologik jarayoni xususiyatidan kelib chiqib, ish rejimini optimallashtirish asosida energiya samaradorligiga erishish masalalari ko'rib chiqilmoqda.

Bugun ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining sanoat tarmoqlari tomonidan iste'moli 40 foizdan 50 foizgacha tashkil etmoqda. 2030-yilga borib, bu ko'rsatkich yana bir necha o'n foiz o'sishi prognoz qilingan. Elektr energiyasi sarfining bu qadar tez oshib borishi mazkur tarmoqda quvvat samaradorligini oshirish vazifasini kun tartibiga olib chiqadi.

Toshkent viloyati sanoatlashgan hudud. Iste'mol qilinadigan energiya resurslarining asosiy qismi yirik energiya iste'molchilari hissasiga to'g'ri keladi. Viloyatda mamlakat iqtisodiyotining tayanchi bo'lgan "Olmaliq

kon-metallurgiya kombinati" AJ, "O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJ, "Maxam-Chirchiq" AJ kabi yirik iste'molchilarning energiya iste'moli samaradorligini oshirish katta miqdordagi energiya resurslari iqtisod qilinishiga zamin yaratadi.

Ishchi guruh o'rganishlari asosida aytish mumkin, elektr energiyasi yo'qotilishining oldini olish hamda energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha Toshkent viloyati namunasi yaratilmoqda. Mazkur andazaga energiya samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan qator takliflar kiritilib, ularning joriy etilishi, o'z navbatida, hududlarda yo'qotishlar kamayishiga, iste'molchilarni uzluksiz va sifatli elektr energiyasi bilan ta'minlashga zamin yaratadi.

Hududlardagi o'rganishlar natijasida ishchi guruhlar berayotgan taklif va tavsiyalar ilmiylik hamda amaliylik bilan dolzarb. Masalan, viloyatning Ohangon shahrida ishlayotgan ilmiy guruh shahardagi 17 ta tashkilotni o'rganishi natijasida elektr ta'minoti

tizimi elementlari noto'g'ri o'rnatilgan tufayli 3 ta tashkilotdagi kompensator qurilmalari ishdan chiqqan, bir holatda transformator o'ta yuqori bosimda ishlayotgani, ikkita holatda elektr yuritkichlarni ishga tushirish rejimi noto'g'ri o'rnatilgani sababli kommutatsiya qurilmalari nosoz ishlayotgani aniqlangan. Ishchi guruh mazkur holatlarni bartaraf etish bo'yicha takliflarini berib, ular amalga oshirilsa, iste'molchilarda 5-7 foizgacha elektr energiyasini iqtisod qilish imkoniyati mavjudligini hisob-kitoblar bilan asoslagan.

Taqdim etilayotgan takliflar orasida asosiy e'tibor iste'molchilar elektr ta'minoti tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llashga qaratilmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, zamonaviy quyosh fotoelektrik stansiyalari hamda quyosh suv isitkichlari aholining elektr va issiqlik energiyasiga sarflaydigan energiya resurslarini 40 foizgacha tejash imkonini beradi. Hududlardagi geliokollektorlardan foydalanish orqali energiya resurslarini iqtisod qilish taklifi bildirilgan. Masalan, 100 litrli suv qurilmasi shu hajmdagi suvni 45 daraja isitish uchun 2 soat vaqt va 4 kilovatt quvvat sarflaydi. Geliokollektor esa shu haroratdagi suvni 1 soatda isitib beradi. Agar bitta geliokollektorning bir kunlik ishlash vaqti 8 soat deb hisoblangan, 1 ta 100 litrli kollektor yordamida bir kecha-kunduzda 32 kilovatt-soat elektr energiyasini tejash mumkin.

Korxonada va tashkilotlarda universitetning energetika muhandisligi fakulteti 4-bosqich talabalarining dual ta'lim tizimida amaliyoti ham tashkil etildi. Hududlarda yirik iste'molchilar hamda elektr tarmoqlarining energiya iste'moli ko'rsatkichlarini tahlil qilish jarayonida talabalar ishtirok etishi ishlab chiqarish bilan o'quv jarayonining o'ziga xos uzluksiz bog'lanishini ifodalab, "tarmoq — korxonada — oliygoh" zanjirining bir halqasi vazifasini bajarmoqda. Energiya resurslari iste'molini tahlil qilish va baholash jarayonida talaba nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlaydi. Bu esa sifatli muhandis kadrlar tayyorlash yo'nalishida oldimizga qo'yilgan

vazifalarning o'z vaqtida ijro etilishiga xizmat qiladi. Talabalarga kelgusida o'zlarini ishlaydigan obyektlar faoliyati bilan bugundanoq tanishish imkonini beradi.

Bugun oldimizdagi asosiy vazifa iqtisodiyot tarmoqlari uchun amaliyotda qo'llanayotgan zamonaviy ilg'or texnologiyalarni ishlatish o'ladigan, ularda bevosita texnologik jarayonlar samaradorligini hamda natijadorligini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilishga qodir, yetuk va malakali muhandis kadrlarni tayyorlashdir.

Mazkur o'rganishlar ishchi guruh tarkibida faoliyat yuritayotgan malakali professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanayotgan tayanich doktorantlar, magistrlar hamda talabalarga nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun amaliy bilimlar maydonchasi vazifasini bajarmoqda.

Ishchi guruh faoliyati nafaqat real obyektlardagi energiya resurslari bo'yicha iste'mol tahliliga, balki o'rganishlar natijasida aniqlanayotgan texnologik muammolar asosida kelgusida talabalarining bitiruv-malakaviy ishlarini, magistrlik dissertatsiyalarini, tadqiqotchilarning doktorlik dissertatsiyalarini hamda mazkur texnologik muammolarni yechishga qaratilgan xo'jalik shartnomalarini tuzishga ham asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Olimlar tomonidan ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar natijasida elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun sarf-xarajati kamaytirishga hamda elektr energiyasini iqtisod qilishga erishildi. Shu bilan birga, iste'molchilarning elektr energiyasidan oqilona foydalanishi iqtisodiy mexanizmlari takomillashtiriladi.

Ayni paytda energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'nalishidagi ishlarning davlat siyosati darajasiga olib chiqilishidan maqsad energiya sig'indorligini kamaytirish asosida iqtisod qilingan energiya resurslarini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga yo'naltirish orqali mamlakatda energetika xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Zero, energetika xavfsizligi mamlakat xavfsizligi kafolatidir.

Xorijdagi vatandosh

CHET ELDA ISHLAYOTGAN TARJIMON QIZ QASHQADARYOGA KATTA INVESTITSIYA YO'NALTIRDI

Kollejda o'qib yurgan kezaridayoq Lobarda xorijiy tillarni o'rganishga intilish paydo bo'ldi. Uning qiziqishi keyinchalik kundalik odatga aylandi. Shu tariqa ingliz va koreys tillarini puxta o'rgandi. Qarshi axborot texnologiyalari kollejini a'lo bahoga tamomlagach, hech ikkilanmay Janubiy Koreyadagi oliyoghlardan biriga hujjat topshirdi. Buni qarangi, omadi chopib, Songyungvan universitetiga o'qishga kirdi.

Yurtidan olisda yosh qiz o'qishni eplab ketolmasa kerak, deyishgandi. Lekin unday bo'lmadi. Tirishqoq, boshlagan ishini oxiriga yetkazishga odatlangani bois, Lobar qisqa muddatda oliyoghdagi eng faol talabalar safidan joy oldi. Bilimini oshirish bilan birga yaxshi mutaxassis bo'lish uchun astoydil intildi. Albatta, xorijda o'qish oson bo'lmadi. Shu bois, Lobar tarjimonlik bilan shug'ullandi. Yirik korxonalaridan biriga ishga kirib, o'qishini ham davom ettirdi.

2023-yilda universitetning koreys tili va adabiyoti yo'nalishi bo'yicha bakalavr



diplomiga ega bo'ldi. Shuningdek, shu yili mamlakatimizning Janubiy Koreyadagi elchixonasi qoshidagi o'zbekistonlik xotin-qizlar ittifoqi rahbarligiga tayinlandi.

Taxminan uch-to'rt oy oldin Qashqadaryo viloyati hokimi bilan xorijda ishlab yurgan, ta'lim olayotgan yoshlar o'rtasida onlayn muloqot tashkil etilgandi. Suhbatda yoshlarning fikriga quloq tutildi. Ularning fan va ta'limda erishayotgan yutuqlari e'tirof etildi. Muammolarni bartaraf etish uchun amaliy harakat boshlangani



Ma'lumotlarga ko'ra, kelgusida aynan Janubiy Koreyaning KDL kompaniyasi vohada "yashil", ya'ni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan quvvat oladigan "aqlli" issiqxonalar qurib beradi. Smart issiqxonalarida yetishtirilgan mahsulot yuqori sifatli bo'lib, to'liq Yevropa bozoriga eksport qilinadi.

ta'kidlandi. Shu bilan birga, yoshlarning ba'zi takliflari eshitilib, loyihalari inobatga olindi. Jumladan, ayni paytda Janubiy Koreyadagi yirik korxonalaridan birida ishlayotgan Lobar Zoirova yaxshi tashabbus bilan chiqdi.

Hozir KDL kompaniyasida tadqiqotchi hamda tarjimonlik bilan shug'ullanayotgan qiz korxonasi viloyatga katta miqdorda investitsiya kiritmoqchi ekanini ma'lum qildi. Bu taklif hokimlik tomonidan ma'qullanib, kompaniya rahbari viloyatga taklif etildi va tegishli muzokaralar olib borildi.

Men ishlayotgan korxonada asosan investitsiya, import, eksport hamda "aqlli" issiqxonalar qurish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanadi, — deydi Lobar Zoirova. — Hozir u mamlakatimizga investitsiya kiritmoqda. Xorazm va Qoraqalpog'istonda qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Bir oz muddat oldin kompaniyamiz rahbariga Qashqadaryoga ham investitsiya kiritish borasida fikrimni

bildirgandim. U qiziqish bildirib, bunga rozi bo'ldi. Yaqinda Qashqadaryoga borib, viloyat hokimi bilan muzokara o'tkazdi. Natijada vohaga katta miqdorda investitsiya kiritiladigan bo'ldi.

Ma'lumotlarga ko'ra, kelgusida aynan Janubiy Koreyaning KDL kompaniyasi vohada "yashil", ya'ni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan quvvat oladigan "aqlli" issiqxonalar qurib beradi. Smart issiqxonalarida yetishtirilgan mahsulot yuqori sifatli bo'lib, to'liq Yevropa bozoriga eksport qilinadi.

Dastlab O'zbekiston haqida boshqacha tasavvurda edik. Yetti yil oldin ham bu davlatga investitsiya kiritish uchun kelgandim. Lekin birorta ham imkoniyat, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlov bo'lmagani bois, ortga qaytib ketganman, — degandi bir muddat oldin KDL kompaniyasi rahbari Kim Je Yong yurtimizdagi ommaviy axborot vositalariga bergan intervyusida. — Oradan bir necha yil o'tib, Prezidentimiz yuritayotgan oqilona siyosat, xorijiy investorlar qo'llab-quvvatlanayotganini bilganimdan keyin darhol kelidik va sarmoya kiritdik. Biz yuz berayotgan o'zgarishlardan xabardormiz va har safar hayratda qolamiz. Ha, O'zbekiston haqiqatan zo'r imkoniyatlar taqdim etmoqda. Misol uchun, viza tizimidagi o'zgarishlar, soliqdagi yengilliklar... Investitsiya kiritmoqchi bo'lgan kompaniya, birinchi navbatda, mana shular bilan qiziqadi. Qolaversa, logistika ham yaxshi yo'lga qo'yilayapti. Bu ham sarmoyadorlar uchun muhim jihat. Yetti yil oldingi va hozirgi vaziyat orasida katta tafovut bor: O'zbekiston bozori juda tez rivojlandi... Kelgusida biz O'zbekistonda "yashil" issiqxonalar qurishni yanada kengaytiramiz. Hozir besh yuz gektarda shunday issiqxonalar barpo etgan bo'lsak, kelgusida bu ming gektarga kengayadi. Keyingi manzilimiz Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand bo'ladi.

Lobar Zoironing aytishicha, ayni paytda xorijlik investor bilan rasmiy hujjatlarini tasdiqlash jarayoni yakuniga yetkazilmoqda. Demak, kelishuvga ko'ra, vohaga koreyalik sarmoyador 300 million dollarga yaqin investitsiya kiritishi rejalashtirilgan. 2025-yilda amalga oshiriladigan loyiha hisobidan viloyatdagi beshta tumanda innovatsion texnologiyali "aqlli" issiqxonalar barpo etiladi. Bundan tashqari, bu issiqxonalar



yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari xorijiy kompaniya tashabbusi bilan to'liq Yevropa bozorlariga eksport qilinadi. Mazkur loyiha muvaffaqiyatli amalga oshsa, chet ellik hamkorlar boshqa tarmoqlarda ham ishlash taklifini bildirgan.

Oldimga qo'ngan qator maqsadlarim bor. Birinchi navbatda, shu yerda magistratura va doktorantura bosqichlarida o'qish harakatidaman. Bundan tashqari, yurtimizga investitsiyalar olib kirilishi hamda yangidan yangi loyihalar amalga oshishiga hissamni qo'shish niyatidaman. Buning uchun imkoniyatim yetarli. Qayda bo'lmaylik, vatanimiz, kindik qonimiz to'kilgan jayonjom O'zbekiston uchun xizmat qilishga tayyor, — deydi Lobar. — Har kuni ijtimoiy tarmoqlar orqali yurtimizdagi yangiliklarni kuzatib boraman. Hamma sohada islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida odamlarning turmush tarzi yaxshilanib, yashashga ishtiyoq ortmoqda. Bu yerda ham ko'pchilik yurtimizda aholi farovon yashashi uchun katta ishlar bajarilayotgani haqida gapiradi. Borib, tomosha qilish istagini bildiradi. Shunday paytda vatanimizning bir-biridan go'zal manzillari haqida faxr bilan so'zlab beraman va bundan o'zgaracha zavq olaman.

Yurtimizda yoshlarga keng imkoniyat ochilishi natijasida yig'it-qizlarimiz bugun turli davlatlarda ta'lim olmoqda. Yetakchi oliyoghlarda tajriba oshirmoqda. Yuqori bilimga ega bo'lib, yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shish uchun astoydil intilmoqda. Lobar Zoironing sa'y-harakati bunga bir misol bo'ladi. U kabi yoshlar safi kengayib borayotgani quvonarli.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 17-oktabr, 210-son

INSON HAYOTI VA SOG'LIG'INI HIMOYA QILISH VA EKOLOGIK HUQUQLARINI TA'MINLASH: ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR



Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblangan yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, avvalo, inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini, har kimning qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqlarini ta'minlash hamda mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi nufuzli o'rnini yanada mustahkamlashga qaratilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovida "Tabiat uchun birlashaylik" shiori ostida ishtirok etib, atrof-muhit barqarorligini ta'minlash va ekologik masalalar nafaqat davlat va jamiyat, balki har bir inson, oila va mahallaning birlamchi ustuvor vazifasi bo'lishiga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Partiyaning Saylovoldi dasturida davlat organlari faoliyatida va jamiyat hayotining barcha jabhalarida yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz normalarini hayotga izchil tatbiq etish, davlat va jamiyat boshqaruvi, sud-huquq sohasidagi islohotlar samaradorligini oshirish hamda qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan 2 ta kodeks, o'nga yaqin yangi qonun loyihalari hamda milliy dastur, konsepsiya va strategiyalarni ishlab chiqish hamda qabul qilish ko'zda tutilmoqda.

Ekolog-huquqshunos kadrlar tayyorlash va ekologiya sohasidagi ixtisoslashgan sudlarni tashkil etish zarur!

Yurtimizda ekologiya sohasidagi huquq-buzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashishni kuchaytirish hamda ta'sirchan ekologik nazorat tizimini takomillashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Bosh prokuratura tizimida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va o'rmon xo'jaligi sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi va hududlarda tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat hamda yerlardan noqonuniy foydalanishni bartaraf etish bo'yicha ixtisoslashtirilgan prokuraturalar tashkil etildi. Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorligi yo'lga qo'yildi.

Partiya ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlagan holda, yuridik va jismoniy shaxslarning ekologik huquqlarini, mulkiy va boshqa manfaatlarini iшонchli himoya qilinishini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish, ularga sohada qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarining mazmun-mohiyatini yetkazish maqsadida yuridik yordam va xizmatlarni yo'lga qo'yish zarur deb hisoblaydi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan ilgari surilayotgan malakali yuridik yordam va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda ekolog-huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish tashabbusi ekologik nizolarni hal etish va huquqbuzarliklarning oldini olishda, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga turli aralashuvlar, tazyiq, to'siqlarga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, ularning ekologik huquqlari cheklanishining oldini olib, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytiradi.

Hozirda ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlikning amaldagi sanksiyalari ayrim hollarda tabiatga va tabiiy resurslarga yetkazilgan haqiqiy zararga nisbatan nomutanosib ravishda belgilangan bo'lib, bu ekologik huquqbuzarliklar sonining kamayishiga olib kelmayapti. Masalan, o'tgan 2023-yilda chiqindilar bilan bog'liq huquqbuzarliklar soni qariyb 17 400 tani, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklar 11 580 tani, o'simlik dunyosini muhofaza qilish sohasida 5220 dan ortiqni, suv va suv obyektlarini muhofaza qilish sohasida 1400 dan ortiqni tashkil etgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-2024-yillar davomida ekologik huquqbuzarliklar yuzasidan 27 ta holat bo'yicha jinoyi ish qo'zg'atilgan bo'lib, ularning barchasi bo'yicha yengil jarima sanksiyalari qo'llanilgan, xolos, 9,5 mingga yaqin noyob turdagi daraxtlar noqonuniy kesilishi oqibatida tabiatga 36 milliard so'mlik zarar yetkazilgan.

So'nggi uch yilda qurilayotgan obyektlar soni 3 barobar oshib, daryo o'zanlarida noqonuniy qumshag'al qazib olish bilan bog'liq 303 ta holatda 68 milliard so'm miqdorida jarima qo'llanilgan, shundan 42 ta holatda 45 milliard so'm miqdorida tabiatga zarar yetkazilgan uchun jinoyat ishlari qo'zg'atilgan.

Shu o'rinda, O'zLiDeP Saylovoldi dasturida "Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jinoyat turlarini kamaytirish, mazkur sohani liberalashtirish taraforimiz" degan g'oya ilgari surilmoqda. Biroq mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun nafaqat ma'muriy, balki jinoyi javobgarlik choralarini kuchaytirilayotgan bir paytda bu g'oya qanchalik o'rinni bo'ladi?

Chunki Ekologik partiya ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish, shu jumladan, atrof-muhitga va aholining sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'la qoplash majburiyatini hamda huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini takomillashtirish taraforidir.

tashkil etilgan. Shu bilan birga, huquqshunoslar tashabbusi bilan 1994-yilda Mexiko shahrida bo'lib o'tgan konferensiyada xalqaro ekologik sud tashkil etilgan.

Xalqaro ekologik sud atrof-muhitni muhofaza qilish va atrof-muhitni boshqarish bo'yicha xalqaro nizolarning muayyan vaziyatini huquqiy tahlil qilish asosida manfaatdor tomonlarning iltimosiga binoan maslahat berish, tomonlarni yarashtrish, murosaga keltirish va tomonlarning o'zaro iltimosiga binoan, tomonlar oldindan majburiy deb tan olgan qaror bilan sud arbitraj jarayonini o'tkazish orqali hal etadi.

BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi ekspertlari fikricha, ekologik sudlarning eng samarali modeli Yangi Zelandiya, Avstraliyaning Yangi Janubiy Uels kabi ixtisoslashgan mustaqil sud institutlari hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, ixtisoslashgan ekologik sudlarni tashkil etish va odil sudlovdan samarali foydalanish orqali insonning ekologik huquqlarini himoya qilishni ta'minlash yo'lga qo'yiladi. Shu jihatdan bunday sudlarning tashkil etilishi nihoyatda dolzarb va zarur hisoblanib, atrof-muhitni muhofaza qilish yo'lida jiddiy qadam hisoblanadi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda yangi yondashuv!

O'zbekiston ekologik partiyasi Saylovoldi dasturida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish yuzasidan yo'l harakati xavfsizligini tartibga solishni qonunosti hujjatlaridan qonun asosida tartibga solishga o'tkazish tashabbusi ilgari surilmoqda. Boisi, yo'l harakati xavfsizligi qoidalari har qanday mamlakatda fuqarolarning hayoti, salomatligi va mol-mulkini himoya qilishning kafolati hisoblanadi.

harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha harakatning ikkinchi o'n yilligi deb e'lon qilindi. Mazkur rezolyutsiyada yo'l harakati xavfsizligi muammosini hal qilish uchun asosiy shartlar va xizmatlarni taqdim etish, avvalambor, qonun chiqaruvchi organlarning zimmasida ekanligi qayd etilgan.

Hozirda yo'l harakati xavfsizligini tartibga solish masalalari "Yo'l harakati to'g'risida"gi qonun, yo'l harakati qoidalari, yo'l harakati qoidalarning buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish tartibi, yo'l-patrol xizmati xodimlarining yo'l harakati qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to'g'risidagi nizomlar bilan ham tartibga solinadi. Bu, o'z navbatida, tarqoq holdagi o'zaro bog'liq qoidalarni bitta qonun hujjatiga jamlashni taqozo etmoqda.

Partiya yo'l harakati xavfsizligini to'liq qonun asosida tartibga solish yo'l-transport hodisalari va qoidabuzarliklar sonini kamaytirish, yo'l harakati qatnashchilarining huquqiy madaniyati, o'zaro hurmati va bilim-tajribasini oshirish, haydovchilar va yodovchilar uchun qulay va xavfsiz yo'l harakatini tashkil etishni ta'minlashga xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

Yoshlarga tamaki mahsulotlari sotilishini taqiqlash lozim deb hisoblaymiz!

O'zbekiston ekologik partiyasining Saylovoldi dasturidan o'rin olgan muhim tashabbuslardan biri 2009-yil 1-yanvardan keyin tug'ilgan shaxslarga 2030-yildan boshlab tamaki mahsulotlari sotilishini taqiqlash va inson salomatligi, ayniqsa, bolalar sog'lig'iga energetik ichimliklarning salbiy ta'sirini inobatga olib, ularni 21 yoshdan kichik shaxslarga sotishni taqiqlashdir.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 2024-yil 1-sentabr holatiga O'zbekistonda tamaki



tug'ilgan shaxslarga 2030-yildan boshlab tamaki mahsulotlari sotilishini taqiqlash taklifi ayni bugungi kundagi muhim masalalardandir. Qolaversa, bu yosh avlodni kashandalik illatidan himoya qilishda samarali mexanizimga aylanishi aniq. Bu taklifning qo'llab-quvvatlanishi esa aholi, eng avvalo, yoshlarning sog'lig'ini tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning zararli ta'siridan, shu bilan bog'liq ijtimoiy va boshqa salbiy oqibatlardan himoya qilishga hamda jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va qaror toptirishga xizmat qiladi.

yangi tahrirdagi "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihalarini ishlab chiqish tarafori hisoblanadi. Shuningdek, dunyoda genetik muhandislik texnologiyalar rivojlanib borayotganligini inobatga olib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda aholi sog'ligini saqlash maqsadida yangi tahrirdagi "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni qabul qilish ham sohada huquqiy asoslarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ekologik qonunchilikni sifat jihatan yangi bosqichga olib chiqish ustuvor maqsad!

O'zbekiston ekologik partiyasi tomonidan ekologiyaga oid qonunchilikni kodifikatsiyalash orqali Ekologik va O'rmon kodekslarini qabul qilish tashabbusi ilgari surilib, mazkur sohalaridagi qonunchilik hujjatlarining yaxlit tizimlashtirilishiga erishish ko'zda tutilmoqda. Ahamiyatli jihati, partiyaning 2019-yilgi Saylovoldi dasturiga ham Ekologik kodeks loyihasi ishlab chiqish masalasi kiritilgan bo'lib, partiya fraksiyasi tomonidan uning loyihasi ishlab chiqilgan. Mazkur loyihani yanada takomillashtirish va parlament muhokamasiga olib chiqish joriy Saylovoldi dasturining ham ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Shu bilan birga, partiya qonun ijodkorligi yo'nalishida "Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi, "Ekologik axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Tabiatni tiklash to'g'risida"gi va "Kimyoviy xavfsizlik to'g'risida"gi yangi qonunlarni hamda yangi tahrirdagi "Chiqindilar to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish zarur deb hisoblaydi.

Xususan, "Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi qonun atrof-muhit monitoringi tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish, prognozlashtirish orqali atrof-muhitga salbiy ta'sir yuzaga kelishining oldini olish, shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanishni tizimli ravishda kuzatish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida davlat nazorati yuritilishini baholash hamda haqqoniy axborot bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Aholining ekologik axborotga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash maqsadida esa "Ekologik axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni, atrof-muhitni tiklash, unga bo'ladigan zararli ta'sir oqibatlarini bartaraf etish va tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarishning huquqiy asoslarini belgilovchi "Tabiatni tiklash to'g'risida"gi qonuni, hozirda kimyo sanoati jadal rivojlanayotganligini e'tiborga olib, aholini kimyoviy zaharlanishdan saqlash, sog'lig'ini muhofaza qilishga qaratilgan "Kimyoviy xavfsizlik to'g'risida"gi qonuni qabul qilish ham ustuvor ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, partiya chiqindilarni boshqarish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hamda tabiiy resurslarni va sohada davlat-xususiy sheriklik mexanizmini hamda davlat boshqaruvi organlari vakolat va funksiyalarini aniq belgilovchi yangi tahrirdagi "Chiqindilar to'g'risida"gi qonuni, atmosfera havosini muhofaza qilish, issiqxona gazlari normadan ortiq chiqarilishining oldini olish va bu borada tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni aniq belgilash maqsadida zamonaviy xalqaro standartlar asosida

Yashil kelajak yo'lida "Barqaror ekologik rivojlanish strategiyasi" va "Milliy dastur" qabul qilish hayotiy zaruratdir!

Joriy yilgi saylovlarda O'zbekiston ekologik partiyasi tomonidan davlat ekologik siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydigan "Barqaror ekologik rivojlanish strategiyasi"ni qabul qilish tashabbusi dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, sohada kompleks muammolarning oldini olishga yo'naltirilgan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu hujjat mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikka erishish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, aholi uchun qulay atrof-muhit sharoitlarini yaratish, iqlim o'zgarishlariga moslashish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatishni nazarda tutadi.

Bir so'z bilan aytganda, "Barqaror ekologik rivojlanish strategiyasi" mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlari uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musofoligini saqlashga xizmat qiladigan hujjat bo'ladi.

Shuningdek, partiya qishloq xo'jaligi, sanoat va iqtisodiyot tarmoqlarida suvdan samarali foydalanishga qaratilgan Milliy dasturini qabul qilishni zarur deb hisoblaydi.

Milliy dastur qabul qilinishi atrofimizda ro'y berayotgan suv bilan bog'liq ekologik muammolardan har birmiz tegishli xulosa chiqarib, suvni tejash va isrof qilmaslik tamoyili kundalik mezonimizga aylanishiga va suvdan kelajak avlod ham bahramand bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi.

Partiya ilgari surayotgan yangi qonunlarni qabul qilish va amaldagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish tashabbuslari inson hayoti va sog'lig'ini himoya qilish va ekologik huquqlarini ta'minlashga, ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirishga xizmat qiladi.

Tabiatning betakror mo'jizasi — muqaddas tuproq, musaffo havo, zilol suv, o'z nurini saxiylik ila sochayotgan quyosh — barcha-barchasi biz, insonlar uchun bebaho ne'mat ekanini doimo yodda tutaylik!

Ona-tabiatiimizni, atrof-muhitni asrab-avaylash, kelajak avlodlarga bekam-u ko'st yetkazish yo'lida birlashaylik!

Xayrullo G'AFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati,
Dildora KAMALOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputatligiga nomzod



Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar kamayayotganini qayd etgan holda partiya ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarni va jinoyat ishlarini ko'rib chiqish bo'yicha ixtisoslashtirilgan sudlar tashkil etish hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdagi javobgarlik choralarini qayta ko'rib chiqish, ma'muriy yordam ko'rsatish to'g'risidagi qonunni kengroq vakolat berish tashabbuslari orqali sohada bir qator muammolarning oldini olish mumkin deb hisoblaydi.

Ko'plab mamlakatlarda ekologik muammolarga jiddiy e'tibor qaratilishi, ushbu masalalarda fuqarolik jamiyatining faollashuvi ixtisoslashtirilgan ekologik sudlarni tashkil etish masalasini kun tartibiga qo'yarmoqda. Hozirda xorijiy davlatlarda ixtisoslashtirilgan ekologik sudlarni shakllantirish tendensiyasi kuchayib, BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi ma'lumotlariga ko'ra, 44 mamlakatda 1200 dan ortiq milliy ekologik sudlar faoliyat ko'rsatmoqda. Statistikaga ko'ra, ularning aksariyati so'nggi o'n yil ichida Angliya, Xitoy, Belgiya, Boliviya, Paragvay, Filippin, Tailand, Janubiy Afrika Respublikasi va boshqa mamlakatlarda tashkil etilgan.

Ekologik sudlar ixtisoslashtirilgan sud sifatida, masalan, AQSHning Vermont shtatidagi, Avstraliyaning Yangi Janubiy Uelsdagi, Kanadaning Ontario shtatidagi, Yangi Zelandiyadagi kabi tuzilishi mumkin yoki Niderlandiya, Daniya, Finlyandiya va Shveysiyadagi kabi sud tizimidagi ekologik nizolarni ko'rib chiqadigan tuzilma sifatida ham faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Jahon hamjamiyati xalqaro darajada hal qilinishini talab etiladigan ekologik nizolarga duch kelayotganligi sababli 1993-yilda BMT xalqaro sudi tarkibida "ekologik masalalar palatasi"

Yevropa mamlakatlari va AQSHda yo'l harakati xavfsizligiga oid alohida qonunlar qabul qilingan bo'lib, ular jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Qabul qilinayotgan har bir qoida, har bir yo'l belgisi va javobgarlik choralarini parlament tomonidan tasdiqlagan qonunlarga asoslanadi.

Jahon sog'lig'ini saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili yo'l-transport hodisalari natijasida 1,19 millionga yaqin odam vafot etadi, yo'l-transport hodisalari 5 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan bolalar va yoshlar o'limining asosiy sababidir. Yo'l-transport hodisalari natijasida aksariyat mamlakatlar tomonidan yetkazilgan zarar ularning yalpi ichki mahsulotining 3 foizigacha yetadi. Bu kabi muammolarni hal etish uchun yaxlit qonuniy yechim kerak. Bu yechim partiya Saylovoldi dasturida taklif etilgan.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda sodir bo'layotgan yo'l transport hodisalari ayanchli oqibatlarga olib kelmoqda. 2023-yilda transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilinganiga qaramay, yana rulg'a o'tirgan shaxs-lar tomonidan 707 ta yo'l-transport hodisasi sodir etilgan. Buning oqibatida 212 nafar shaxs hayotidan ko'z yumgan, 546 kishi esa turli darajada tan jarohatlarini olgan.

Mazkur statistik ma'lumotlar sohani tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, mazkur munosabatlarni qonun asosida tartibga solish har tomonlama samarali hisoblanadi.

Partiyaning taklifi xalqaro miqyosdagi tashabbuslarga ham bevosita mos hisoblanadi. BMTning Bosh Assambleyasi "Dunyo bo'yab yo'l harakati xavfsizligini oshirish bo'yicha rezolyutsiyasi"ni (A/RES/74/299) qabul qilib, 2021-2030-yillargacha bo'lgan davrni yo'l

mahsuloti noqonuniy aylanmasining ulushi 12,5 foizni tashkil qildi.

Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi haqida ko'p bora eshitasak-da, afsuski, hozirgi kunda butun dunyoda tamaki chekuvchilari soni ortib, ayniqsa, yoshlar orasida bu odatning keng tarqalayotgani keng jamoatchilikni tashvishga solmoqda.

Ko'plab mamlakatlarda yoshlarning tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishiga chek qo'yishga qaratilgan sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Yangi Zelandiyada 2009-yil 1-yanvarda va undan keyin tug'ilgan shaxslarga tamaki mahsulotlarini sotish taqiqlangan bo'lib, belgilangan tartibni buzganlik uchun 50 000 dan 150 000 dollargacha jarima nazarda tutilgan.

Butun dunyoda sog'lom turmush tarzi taraforlari, siyosatchilar hamda tamakiga qarshi kurashish sohasining faollari ushbu muammoni muhokamalar platformasiga olib chiqmoqda. Mamlakatlar hukumatlarini yoshlarni bunday illatdan himoya qilish uchun zarur choralarini ko'rishga da'vat etmoqda.

Jahon sog'lig'ini saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yab 13-15 yoshdagi 37 million nafar o'g'il-qizlar tamakini u yoki bu shaklda iste'mol qiladi. Yevropa mintaqasida esa 13-15 yoshdagi 11,5 foiz o'g'il bolalar va 10,1 foiz qizlar tamaki chekadi.

Ekspertlar fikricha, yoshlar o'rtasida kashandalik illati ko'lami ortishiga bir-biridan jozibador reklamlar ko'payib, qonuniy cheklovlar tobora susayib borayotgani sabab bo'lmoqda. Mutaxassislar 2050-yilgacha sayyoramizda chekish tufayli 450 million inson hayotidan ko'z yumishi mumkinligini prognoz qilmoqda.

Shulardan kelib chiqib, O'zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan ilgari surilayotgan tashabbus — 2009-yil 1-yanvardan keyin



Qaror va ijro



SOTIB OLISH EMAS, BALKI ICHKI IMKONIYATLARNI

TO'LIQ ISHGA SOLISH SIYOSATI
Sholichilikdagi loyihalar
shunga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidirMas'udjon SATTOROV,
Sholichilik ilmiy-tadqiqot
instituti direktori,
qishloq xo'jaligi fanlari
doktori

Boshlanishi 1-betda

Bular O'zbekiston uchun ham daxldor masalalar, albatta. Orol dengizi qurishi, intensiv dehqonchilik yerlari sho'rlanishi, daryolar suvi keskin kamayishi eng tashvishli omillar sirasidan. Shuningdek, dehqonchilik madaniyatidan dunyoviy o'lchovlar bo'yicha ortda qolayotganimiz ham bor gap. Bunday hol ko'plab savollarni yuzaga keltirmoqda. Quyida shulardan biri — sholi yetishtirish masalasiga batafsilroq to'xtalsak. Chunki sholi, aytib o'tganimizdek, eng ko'p suv talab qiluvchi ekin.

Asosiy masala — mamlakatimiz qishloq xo'jaligi oldida tuproq-iqlim, suv tanqisligi, qurg'oqchilik, yuqori harorat, sho'rlanish, tuproq degradatsiyasi, unumdorlik pasayishi singari muammolar ekan, guruh yetishtirishda nimalarga e'tibor qaratish kerak? Vaholanki, guruchga talab dunyo bo'yicha ortib bormoqda. AQSH qishloq xo'jaligi departamenti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 2022-yilda sholi ishlab chiqarish 496,4 million tonnani, 2023-yilda esa 503,17 million tonnani tashkil etgan. Bu guruchga talab yiliga 1,36 foiz ortayotganini anglatadi.

Respublikamizda 2023-yil hosili uchun e'kilgan 141 ming gektar sholi maydonidan 661,4 ming tonna hosil yetishtirilib, hosildorlik 47,1 sentner bo'lgan. Xalqimiz guruchni suyb iste'mol qiladigan millatlar qatorida. Shularni inobatga olsak, sholi biz uchun, albatta, kerak. Lekin O'zbekiston tuproq-iqlim sharoitida dehqonchilik tabiiy

resurslari qat'iy cheklangan, ayniqsa, bu sholichilikka taalluqli. Chunki sug'orish uchun suvning 85 foizi transchegaraviy hisoblanadi. Shuning uchun endi asosiy e'tibor sholi ekinini joylashtirishda, birinchi navbatda, suv ta'minotiga, ikkinchidan, hosildorlik hamda uning sifatiga, tanaxriga qaratiladi.

Endi sholi maydonlari juda yoyiq, keng miqyosda joylashtirilmay, suv sarfida yuqori samarali massivlashtirish tartibidan foydalaniladi. Suvning yildan yilga keskin kamayishi inobatga olinib, sholichilikda "yer maydonlarini qisqartirish, hosildorlikni esa oshirish" tamoyili qabul qilinib, faqat ilmiy asoslangan tavsiyalar bo'yicha turli resurstejamkor agrobiologik texnologiyalar, biotik va abiotik omillarga chidamli xorijiy hamda hamkorlikda yaratilgan, genetik tuzilishi jihatidan mahalliy navlardan keskin farqlanuvchi lider sholi navlari birlamchi urug'chiligi tashkil etiladi.

So'nggi yillarda suvtejamkor, turli stress omillarga chidamli navlarni yaratishda xorijiy hamkorlikni kuchaytirish hamda yetishtirish agroteknologiyalarini mahalliyashtirish, bu boradagi tajribalardan keng miqyosda foydalanishga va amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sholichilikni rivojlantirish bo'yicha bir qancha hujjatlar qabul qilinib, ilm-fanning bosqichma-bosqich rivojlanishiga hissa qo'shildi.

Prezidentimizning 2024-yil 15-avgustdagi "Sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yig'ilib qolgan innovatsion yangiliklarni amaliyotga joriy etishga keng yo'l ochib beradi, desak adashmaymiz. Chunki Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari Janubiy Koreyaning KOPIA markazi bilan hamkorlikda sholi ko'chatini maxsus issioxonalarda tayyorlash va mexanizatsiya yordamida asosiy hamda takroriy ekin sifatida ekish bo'yicha ilmiy ishlarni deyarli tugatgandi. Faqat uni amaliyotga keng joriy etish uchun davlat qo'llab-quvvatlovi juda zarur edi. Ya'ni loyihaga asosan, institutga sinash va ekish maqsadida ushbu mamlakatdan keltirilgan "RF-48 va PRO 600 V rusumli 5 ta mashina keng qamrovli sinovlar o'tkazishi uchun yetarli emasd. Qarorda aynan shu jihat ham inobatga olingani ishlarni jadallashtirishga xizmat qiladi.



Xalqaro standartlar talablariga javob beradigan sholi elita markazlari, yuqori avlodli urug'liklarni ko'paytirish uchun qonuniy ajratilgan yer maydonlari, urug'lik sholini tozalash, saralash va qadoqlash tartibotlarini amaliyotga qo'llash imkoniyati ham yo'q edi. Bu holat esa mahalliy sholi navlarining raqobatbardoshligi pasayishiga olib kelayotgandi. Qarorda respublikamizda sholi yetishtirish, saqlash, qayta ishlab chiqarish va samarali tizimini joriy etish, ichki iste'mol bozorini guruch bilan barqaror ta'minlash, buning uchun sohada ilmiy tadqiqot ishlarni, ayniqsa, xorijiy hamkorlikni kengaytirish masalalarini qayd etilgani ayni muddao bo'ldi. Jumladan, 2024-yil 1-sentabrda boshlab fermer, dehqon xo'jaliklari va boshqalarga sholi yetishtirish hamda xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirish uchun kredit ajratilishi belgilandi. 2025-2026-yillarda qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan sholi ekish uchun xarid qilingan va ishlab chiqarilganiga bir yildan oshmagan yangi urug' sevaklari hamda ko'chatlab ekish uskunalarini qiyamatining 20 foizi davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish orqali qoplab beriladi. Bunda Xorazm viloyati uchun alohida imtiyoz va choralar qo'llaniladi. Misol uchun, Gurlan tumanida mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida sholi elita urug'lik markazlari tashkil etiladi.

Yana bir ijobiy omil, xorijiy sholi navlari bo'yicha ikki yil davomida sinovlar o'tkazilib, tezpishar, kam suv talab qiladigan, yuqori hosilli navlar tanlab olinadi hamda ularning birlamchi urug'chiligi yo'lga qo'yiladi. Mahalliy stress omillarga bardoshli g'oz'a navlari nisbatan chidamlilariga almashiriladi. Natijada o'rtacha hosildorlik 5-7 sentner oshiriladi. Ushbu qaror negizida ilm-fan yangiliklarini amaliyotga to'liq joriy etish, ya'ni sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash siyosati yetibdi. Albatta, bu ijobiy natijasini beradi.

Qarorda Xorazm viloyatiga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas. Buning ilmiy-amaliy asoslari bor. Birinchi, Xorazm O'zbekistonning shimoli-g'arbida, Amudaryoning pastki oqimida dengiz sathidan 106-108 metr balandlikda joylashgan bo'lib, yurtimizning eng past qismi hisoblanadi. Bu yerda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati qadimdan rivojlangan. Amudaryo suvi tekis yerlarni, paxta, bug'doy, sholi va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash uchun qulay.

Yerlefi pasttekstlik bo'lib, umumiy pasayishi shimoli-g'arb tomoniga yo'nalgan. Viloyatning butun hududi sug'orish kanallari va zovurlari bilan qoplangan. Demak, muolaja bilan bog'liq barcha yordamlarni endi shu yerda o'laymiz.

Tashkil etilgan mahalla tibbiyot punktida aholiga birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Shifokor qabuli, muolaja uchun maxsus o'rin-joy, elektr, sovuq va issiq suv, isitish tizimi kabi zarur infratuzilma tarmoqlari mavjud. Umumiy amaliyot shifokori Saodatxon Usmonova tibbiyot punkti uchun bitta UZI apparati ajratish maqsadga muvofiqligini ta'kidladi.

"Uzumzor" mahalla fuqarolar yig'inida amalga oshirilgan buniyodkorlik, obodonchilik ishlari bilan tanishish jarayonida e'tiborimizni torgan yana bir jihat, ko'p qavatli uy-joylar yonida milliy urf-odat va qadriyatlarimizga xos bo'lgan tandir va o'choqlar, dam olish, tadbirlar o'tkazishga ixtisoslashtirilgan milliy ayvonlar qurib berilibdi. O'sxashni yo'q bu loyihalar aholini bir maqsad yo'lida birlashtirish, hamjihatlikda ish olib borish imkoniyatini beradi.

Mahallamiz ko'p millatli. Shu kunga qadar mahalla fuqarolar yig'ini uchun bino ham yo'q edi, — deydi mahalla xotin-qizlar faoli Muhabbat Ilmiyaminova. — Uch yildirki, bir xonali eski binoda ijara turib ish olib borganimiz. Birov kelsa, o'tqazgani joy to'plamay qoldiradi. Hamma qiyinchiliklar ortda qoldi. "Mahalla yetilligi" uchun barcha shart-

mamlakat sholikorligini maqsadli rivojlantirish uchun eng qulay hudud — Xorazm. Ikkinchidan, Xorazmda dehqonchilik yaxshi rivojlangan, o'zining sholichilik maktabiga ega.

Uchinchidan, bu yerda sholichilikni yanada rivojlantirishga qiziqish yuqori hamda malakali kadr-mutaxassislar yetarli.

To'rtinchidan, mamlakatda yetishtirilayotgan jami sholining 36 foizi Xorazm viloyati hissasiga to'g'ri keladi.

Beshinchidan, viloyatning jami hududi bir irrigatsiya tizimiga tutashgan.

Oltinchidan, Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti filiali Gurlan tumanida joylashgan

kub metr, doimiy sug'orish texnologiyasi qo'llanilganda esa gektariga 14-23 ming kub metr gacha suv sarflash mumkinligi aniqlandi.

Ko'p yillik izlanishlar natijasida turli salbiy omillarga, ya'ni suvsizlik, sho'rlanish, yuqori va past haroratga chidamli, irsiy ko'rsatkichlari, past, o'rta bo'yli, ko'p tuplanuvchan, qattiq poyali mahalliy navlardan keskin farqlanuvchi xorijiy navlar asosida birinchi marotaba Qoraqalpog'iston va Xorazm sharoiti uchun mos modifikatsiyalangan "Yo'lodosh" va "Manzur" navlari yaratildi. Filippindagi Xalqaro sholichilik institutidan olib kelingan navlar orasida Toshkent, Namangan, Xorazm va boshqa viloyatlar sharoitiga mos suv talab

etuvchi, hosildorligi yuqori, sho'rga chidamli navlar bo'yicha dala tajribalari o'tkazilmoqda. 2023-yilda "Sholi yetishtirish texnologiyasini mexanizatsiyalash yo'li bilan takomillashtirish va bir gektardan 110-120 sentner hosil olish" texnik hamkorlik loyihasi doirasida Janubiy Koreyaning KOPIA markazi bilan ilk bor gektar sholi maydonidan ikki marta hosil olish bo'yicha ko'chat usuli tadqiqotlari dala sharoitida o'tkazildi. Andijon viloyati Izboskan tumani "Nodirbek" fermer xo'jaligi maydonlarida aprel oyida sholi ko'chat usulida ekildi. Bunda birinchi hosildan gektariga 65 sentner, ikkinchi hosildan esa 55 sentner, jami 120 sentner hosil olishga erishildi. Hozir yangi yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bir guruh olimlarimiz duragay sholi yetishtirish bo'yicha Vyetnamda 2 oylik malaka oshirish amaliy kurslarini o'tamoqda va 2025-yildan Xorazm viloyatida ilk bor sinash ishlari boshlanishi rejalashtirilgan.

Ilmiy natijalar hamda yangiliklar, ya'ni turli stresslarga chidamli yangi geroplazmalarga ega serhosil navlar yaratilishi juda og'ir mehnat, uzoq muddat, mablag' talab etadigan sholi ko'chatini qo'lda ekishdan bosqichma-bosqich voz kechishga zamin bo'ladi. Ilg'or usullar texnologiyasini mexanizatsiyalashtirish barcha sarf-xarajatlarni o'rtacha 30-50 foiz tejashga, hosildorlikni esa 3-5 sentnerdan oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir jihat. Dunyo bozorida bugungi kunda paxta xomashyosi narxi keskin pasayishi, klasterlar paxta yetishtirish xarajatlarini qoplay olmayotgani, g'oz'a parvarishida suv sarfi ko'pligini inobatga olgan holda Xorazm viloyatida sholi ulushini 60-70 foizga olib chiqish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Natijada viloyatda ikki variantli don yetishtirish tizimini yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shundan birinchi variantda "kuzgi g'alla: takroriy sholi" navbatlab ekish tizimini qo'llab, bir gektardan 100-110 sentner g'alla va sholi hosili olish mumkin. Ikkinchi variantda esa "sholi: sholi" navbatlab ekish tizimini qo'llab, ko'chat usulida asosiy ekin sifatida sholi yetishtirilib, gektardan o'rtacha 60-70 sentner birinchi hosilni olish va ketma-ket yerni hozirlab, maxsus tayyorlangan ertapisar sholi ko'chatlarini (arpa sholi — devzira) ekip parvarishlash orqali yana qo'shimcha 11-12 tonnagacha mahsulot olinadi.

Respublikamiz ishlab chiqarishda bir kilo paxta 6-8 ming so'm baholansa, guruchning bozordagi narxi 35-40 ming so'm atrofida. Noyob sanalangan "arpa sholi", ya'ni devzira guruchlarining narxi 120 ming so'm gacha yetgan. Shu bilan birga, har yili ko'p miqdorda guruch import qilishga majburmiz. Demak, ilk bor Xorazm viloyatini boshqoli don ekinlari hamda sholichilikka ixtisoslashtirish masalasini o'ylab ko'rish kerakdir.

Obod mahalla

Qo'qon shahridagi "Uzumzor" mahalla fuqarolar yig'inida "Obod xonadon — obod ko'cha — obod mahalla" mezonlari dasturi asosida amalga oshirilgan buniyodkorlik va obodonchilik ishlari ko'fina mahalla hayot tarzini butunlay o'zgartirib yubordi. Aholi xonadonlari, ko'chalarning bugungi me'moriy ko'rinishiga havasining keladi, ko'makka muhtoj oilalar har jihatdan ijtimoiy qo'llab-quvvatlanyapti.

Obodonchilik ishlarni amalga oshirish uchun aynan "Uzumzor" mahalla fuqarolar yig'ini tanlab olingani bejiz emas. Uch mingdan ortiq aholi yashaydigan mahalla uzoq yillardan buyon muammolar girdobida qolgandi. O'tgan asrning 60-80-yillarida qurilgan ikki va to'rt qavatli uy-joylar yillar davomida e'tibordan chetda qoldi. Natijada har kim o'zi istagan holda temir-beton garajlar, qo'yxona, molxona, tovuqxona singari pala-partish binolar qurib tashladi. Bu aholining haqli e'tirozlari, transport harakati, hududining me'moriy ko'rinishiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

Prezident Administratsiyasi rahbarligida mahallada xatlov o'tkazish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish, aholi turmush darajasini ko'tarish, ularning hayotdan rozi

ODAMLAR ROZILIGI BILAN
YURTGA BARAKA INADI

bo'lib yashashi uchun har bir xonadonda imkoniyat yaratishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqildi.

Qisqa fursatda "Uzumzor"da katta buniyodkorlik va obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Mavjud ichki yo'llar asfaltlandi, elektr tarmoqlariga temir-beton tayanchlari o'rnatildi, transformatorlar ta'mirlandi. Hududni obodonlashtirish, yashil makon yaratish maqsadida sug'orish tizimlari uchun suv quduqlari qazib berildi, chiqindilar yig'ish tarmoqlari qurildi, suv yo'llari betonlashtirildi.

"Obod xonadon" mezonlari asosida 6 ta ikki va 2 ta 4 qavatli uy-joyning ichki, tashqi va tom qismini ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Ehtiyojmand oilalar istiqomat qilayotgan xonadonlarda kapital ta'mirlash borasida olib borilgan ishlar odamlar ko'nglini ko'tarmoqda. — Shu mahallaga kelin bo'lib tushganimga yarim asrdan oshdi, — deydi nabirasi bolalar maydoni sari yetaklab borayotgan Ra'noxon aya Yusupova. — Ammo bunday katta qurilish va obodonchiliklarni ko'maganman. Atrofga boqsam, ko'zim quvnaydi, dilim yayraydi. Baraka topsin, har bir ko'p qavatli uy-joylar oldida zamonaviy bolalar o'yin maydonchalari qurib berishdi. Tunda ham kunduzdek yorishgan ko'cha va xiyobonlarda sayr qilib dam o'layman. Ko'rsatlayotgan bunday e'tibordan ko'nglimiz tog'dek yuksaldi, hammasi uchun katta rahmat.

Hududda saxovatpesha homiylar, tashabbuskor tadbirkorlar ko'magi va qo'llab-quvvatlashi asosida umumiy qiymati 9 milliard so'mdan ortiq qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Aholining ehtiyojmand qatlamini aniqlash, tadbirkorlik faoliyatlarini kengaytirish maqsadida asbob-uskunalar uchun subsidiyalar ajratish, bandligini ta'minlash, moddiy yordam berish bilan bog'liq ish ko'lamlariga alohida e'tibor qaratildi.

Mahalla hududida shu kunga qadar birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish punkti bo'lmagan. Tibbiy xizmatga ehtiyoj sezgan aholi 10 kilometrdan ortiq masofa bosib, shahar markazidagi oilaviy poliklinikaga borishga majbur bo'lgan. Bugunga kelib, bu boradagi ovoragarchiliklar barham topdi. Mahallada 8-oilaviy poliklinikaga qarashli konteyner tibbiyot punkti ishga tushirildi. — Qon bosimim ko'tarilib turgani bois, shifokorlarga tez-tez murojaat qilishimga to'g'ri keladi, — deydi mehnat faxriysi Fotimaxon Abdurahmonova. — Oilaviy poliklinika yashash manzilimizdan birmuncha uzoqliq uchun ko'plab ovoragarchiliklarga duch kelamiz. Mahallamizda tashkil etilgan yangi tibbiy xizmat ko'rsatish tarmog'i uzoq'imizni yaqin, og'irimizni yengil qildi. Tibbiy ko'rik,



sharoitlar mujassam zamonaviy bino qurib berilgani ayni muddao bo'ldi.

Obodonchilik, buniyodkorlik ishlari bu bilan cheklanib qolgan yo'q. Ehtiyojmandlarni ijtimoiy himoyalash, ishsiz, migratsiyadan qaytgan yoshlarni ish bilan ta'minlashga bo'yondam e'tibor oshdi. Shu kunga qadar hokim yordamchisi tavsiyasi bilan umumiy qiymati 204 million so'mlik imtiyozli kredit mablag'lari berilib, 40 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Kasb-hunar o'rganish istagini bildirgan 20 nafar xotin-qiz kasbga o'qitildi.

Mahallamizda bolalar trikotaj kiyimlari ishlab chiqarish rivojlangan, — deydi Hadichaxon Ergasheva. — Bu yo'nalishda o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yimochi ekanimizni bildirirdi. Tashabbusimiz qo'llab-quvvatlanib, 33 million so'mlik imtiyozli kredit mablag'i berildi. Tikuv jihozlari xarid qildim. Mehnat migratsiyasida bo'lgan qizim va kelinimni ham chaqirib oldim. Endilikda

shu yerda yashab, yaxshi daromad topish imkoniyatiga ega bo'ldik.

— Xasta onam va ukalarimdan ortib, hech qayerda ishlay olmayotgandim, — deya subhatga qo'shildi Dadaxon Kamolov. — Menga subsidiya asosida tikuv mashinasi va xomashyo xarid qilish uchun 5 million so'mlik imtiyozli kredit berishdi. Ayni kunda ayollar uchun sharf-ro'mollar tayyorlashni yo'lga qo'ydim. Ukam va singlimga ham kasb-hunar sirlarini o'rgatayman.

Sirasini aytganda, yurt obodligi, aholi farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlar chekka va olis hududlar hayot tarzini o'zgartirmoqda. Buni odamlarning e'tirofi va e'tiboriga sazovor bo'layotgan xonadon va ko'chalarning yangi qiyofasidan ham anglash mumkin.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligi

ULUG' AJDODLAR
ILMIY MEROSI — KELAJAK MAYOG'I

Shu kunlarda mamlakat janubidagi voha markazi — Termiz shahri hamda Sherobod tumanida qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, xalqaro simpozium va konferensiyalar, anjumanlar o'tkazilayapti.



imliy-amaliy konferensiyasini yuqori saviyada o'tkazish rejalashtirilgan, — deydi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori o'rinbosari, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Karomiddin Jamahmatov. — Bugun o'tmishni bilmay, yangi tarix, yangi g'oya, yangi kashfiyot, yangi hayotga qadam qo'yish amri mahol. Tarix orqali yoshlarning ona vataniiga munosabati o'zgaradi. Yurt istiqboli, xalq farovonligi iqtisodiyot va ma'naviyat yuksakligidir. Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiydek ulug' allomalar hayoti va merosini o'rganish orqali sof azaliy ma'naviyatimizni saqlab qolamiz.

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazidagi izlanishlar natijasida o'rta asrlarda Termizda ko'plab ilmiy maktablar mavjud bo'lgani, o'z davrida islom sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lgani isbotini topdi. Jumladan, tafsir, hadis, tasavvuf, aqida va adabiyotga oid maktablarda Hakim Termiziy, Abu Ja'far Muhammad Termiziy, Imom Abu Iso Termiziy, Abu Bakr Varroq Termiziy kabi termiziy nisbasi bilan ijod qilgan 100 dan ortiq alloma faoliyati va merosi haqida yurtimiz va jahon ilmiy jamoatchiligiga yangidan yangi ma'lumotlar taqdim etilmoqda.

— Muhammad ibn Iso Termiziy Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'i (hozirgi Sherobod tumani hududida) o'rtaoh o'rtida tug'ilgan va shu yerda vafot etgan, — deydi Surxondaryo viloyati bosh imom-xatibi Aliakbar Sayfiddinov. — Mutafakkirimiz bolaligi va yoshligi Termiz shahrida o'tib, dastlabki ma'lumotni ham shu shaharda olgan. Imom Termiziy yoshligidan turli ilmlarni egallashga zo'r qiziqishi bilan intilgan. Bolaligidan o'ta ziyalikligi, yodlash qobiliyati kuchli bo'lgani, noyob iqtidori bilan tengqurlaridan ajralib turgan. Hadis ilmini egallash va rivojlantirish uchun o'z davrining mashhur muhaddislaridan tahsil oldi. Ustozlari sifatida Imom Buxoriy, Imom Muslim, Abu Dovud, Qutayba

Davlatimiz rahbarining joriy yil 15-avgustdagi "Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ijrosiga kirishilgan. Qarorga ko'ra, 2024-yil oktyabrda Termiz shahrida Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlanishi belgilangan. Tadbirni yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ham tasdiqlangan.

Shuningdek, qarorda qayd etilganidek, 2024-yil oktabrda Toshkent shahrida "Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazilishi nazarda tutilgan. Uning doirasida "Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazish ham rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, Sherobod tumanidagi Imom Abu Iso Termiziy majmuasida obodonlashtirish ishlari bajariladi. Bu yerda Imom Termiziy va termiziy allomalarning hayoti, ilmiy va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan asarlar, nodir qo'lyozma va nashr nusxalari hamda kitoblarning ko'rgazmasini tashkil etish mo'ljallangan.

Bugunga qadar viloyat markazidagi qator oliygo'harlarda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Din ishlari bo'yicha qo'mita hamkorligida "Termiziy allomalarning ilmiy-ma'naviy merosi: o'tmish va bugun" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda Imom Termiziy hayoti va ilmiy faoliyatiga oid maqolalar tanlovi o'tkazildi.

— Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlanayotgani barchamizni birdek quvontradi. Chunki bu tariximizni tiklash, ilmiy, tarixiy va hayotiy haqiqat nuqtayi nazaridan turib yangidan talqin etish imkonidir, — deydi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi Jaloliddin Mirzayev. — Abu Iso Termiziy hayotida Termiz shahri va termiziylik bilan aloqalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli Termiz shahrida qator loyihalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

2017-yilda ochilgan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi qisqa muddatda nafaqat O'zbekiston, balki jahon ilmiy jamoatchiligi orasida o'zining munosib



o'rni ega bo'ldi. Markaz yonida o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi hamda alloma nomi bilan ataluvchi institut tashkil etilgani janubdagi qadimiy va navqiron shaharda katta ta'lim va ilmiy-tadqiqot majmuasi mavjud kelganidan dalolat.

— Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ochilgani katta voqea bo'ldi. Ushbu markaz sabab Termiziy va Chag'oniy allomalar ilmiy merosini o'rganish, tadqiq etish, qo'lyozma manbalarni nashrga tayyorlash imkonini paydo bo'ldi. Bunday ilmiy-ma'rifiy faoliyat ma'rifatga tashna xalqimiz uchun yuksak ahamiyatga ega, — deydi markaz direktori, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Muzaffarxon Joniyev. — 2023-yil noyabrda Termiz shahrida "Imom Buxoriy, Dorimiy va Termiziy: muhaddislikning Movarounnahr maktabi" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazilgan edi. Shunda ishtirokchilardan biri, BAA ulamolari kengashi a'zosi, Sharja universiteti professori Shayx Abdulhakim al-Anis "Imom Termiziyning ibratli hayotining o'zi butun musulmon olami uchun bebaho bir asardir. Ayniqsa, olimning vatanida unga nomidagi ilmiy markaz tashkil etilgani buyuk muhaddis ilmiy merosiga ehtirom, cheksiz hurmatning amaliy ifodasidir", deya ta'kidlagan edi. Endigi maqsad ana shu e'tiroflarning uzviy davomi sifatida oktyabrda belgilangan yirik tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etishdan iborat. Allomalar merosini o'rganish, ilmiy-ma'rifiy jihatlarni keng ommaga yetkazib berish hozirgi davrning muhim vazifasi. Chunki jamiyat ma'naviy takomilida bu kabi ilmiy faoliyat, ajdodlarning ma'naviy merosini chuqur o'rganish juda muhim.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Termiz shahrida "Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman o'tkaziladi. Unda Termiz hadis maktabi, Imom Termiziy hayoti va ilmiy merosi, Imom Termiziyning hadis ilmi rivojidagi o'rni, "Sunan" nomli asarining o'ziga xos jihatlari, Hakim Termiziy hayoti va ilmiy merosi, hadis ilmi g'issasi, Termiziy allomalar ilmiy merosi va hozirgi ahamiyati kabi mavzular muhokama qilinadi.

— Movarounnahr dunyoga ikkita Renessansni tuha qilgan bo'lsa, ayni damda Uchinchi Renessans poydevori uchun ildam qadam tashlamog'ida. Mana shunday xayriy ishlardan biri sifatida "Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman hamda "Termiziy allomalarning ilmiy-ma'naviy merosi: o'tmish va bugun" mavzusida respublika

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

2020-yilning kuzi. Dunyoda pandemiya bilan bog'liq vaziyat tobora keskinlashib borayotgan payt. BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi pandemiya sabab onlayn o'tkazildi. O'shanda millatimiz qalbini cheksiz quvonch va faxr-iftixorga to'ldirgan voqea yuz berdi. Prezidentimiz BMT tarixida ilk marotaba o'zbek tilida nutq so'zlad.



21-oktabr — O'zbek tili bayrami kuni

ONA TILIM ONAM KABI MO'TABAR



Gulnoza JO'RAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti prorektori

O'shanda davlatimiz rahbarining nutqini BMT zalida o'rganish barcha diqqat bilan eshitib, olqishlagan edi. Tasavvur qilyapsizmi, birgina nutq bo'is, dunyoning O'zbekistonga qiziqishi ortib, o'zaro manfaatli do'stlik va hamkorlik ufqolari yanada kengaydi.

O'sha kezlari Erkin Vohidovning "Ona tilimni muazzam va ulug' desam, e'zozlab boshga ko'tarsam, buning boisi o'zimizni ko'lgani, jonimga yaqinligi uchun emas. Shunga ishonganim, imyon keltirganim uchun, mening ham bir-ikki tildan xabarim bo'lib, qiyoslash imkoniyatlarim borligi uchundir", degan jumlasini yodimga tushdi.

Soha islohotlari debochasi

Aslida, davlat tili nufuzini oshirishga doir ishlar BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidan ancha avval jadallashgan edi. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni chin ma'noda sohani yangi bosqichga olib chiqdi. Barcha jabhada davlat tilining sof holda to'laqonli amal qilinishini ta'minlash eng muhim masalalardan biriga aylandi. Shuningdek, farmon bilan Vazirlar Mahkamasida huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilgani sohadagi islohotlarning debochasi bo'ldi.

Til xalqimizning boy tarixini, madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, an'analari va urf-odatlarini aks ettiradi. Shuning barobarida ildizi musharak turli millat va etlatlar bilan bog'lab turuvchi ko'priklar va vazifasini o'taydi. Prezidentimizning 2020-yil 20-oktabrdagi

"Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ham bu yo'ldagi olamshumul ishlardan biri bo'ldi. Farmonda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohasida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish, qolaversa, ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish hamda davlat tilining sofligini saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'z uyimizda begona tilda gaplashar edik

Oddiy hayot haqiqati bor: bugunning qadriga yetish uchun kechadan xabardor bo'lish lozim. Davlat tili maqomini berilganiga o'ttiz besh yil to'ladigan sana yaqinlashgani sari o'zbek tilining bugungidek nufuzga erishishi oson kechmagani xayolga kelaveradi. Biz kabi katta avlod vakillari yaxshi eslaydi: kezi kelsa, o'z uyimizda ona tilimizni qo'yib, begona tilda gaplashdik. Idoramizda ham yot tilda tushunib-tushunmay qog'oz qoraladik. Eng achinarlisi nima, bilasizmi? Shunday paytlar bo'ldiki, hatto ona tilimiz joziyasini ochib berishga bag'ishlangan ilmiy ishlarimizni ham o'zga tilda yozishga majbur bo'ldik. So'nggi yillardagi islohotlar epkini davlat tili maqomini ancha pog'ona yuqori ko'tarib, ijodkorlar dilidagi jarohatlarning bitishiga sabab bo'ldi.

Davlatimiz rahbari 2023-yil O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan yo'llagan tabrigida mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini milliy o'zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug' kelajagimizni ta'minlashning eng muhim omili deb bilishimiz zarurligini ta'kidlagan. Mana shunday ezgu maqsad yo'lidagi amaliy harakatlar, sohadagi samarali islohotlar tufayli jamiyatimiz hayotida davlat tilining qo'llanish doirasi tobora kengayib bormoqda.

O'zbek o'zligini bo'y-basti ila jahonga namoyon etdi

Prezidentimiz 2023-yil BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi minbarida ikkinchi bor o'zbek tilida nutq so'zlad. Bu amaliy harakat tilimizning qadr-qimmatini jahon hamjamiyati oldida baland ko'tarib, xalqimiz va vatanimizga beqiyos mehr-muhabbatning amaldagi yorqin ifodasi bo'ldi. O'zbek o'zligini dunyoga ko'rsatdi. O'sha onda Alisher Navoiy bobomiz tilining qudrati, o'ziga millionlarni ohanrabodek tortishi isbotini topdi. Bu nutq oldimizga yana bir vazifa qo'ydi: hamisha va hamma joyda ona tilimizda ravon gapirish, nimalarga qodirligini namoyon etish mas'uliyati.

Ancha yillardan buyon oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassis sifatida aytishim mumkin, hech qachon mamlakatimizda o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash va ilmiy

tadqiqotlar olib borish masalasiga bugungidek e'tibor qaratilmagan. Hozir 33 ta oliygo'hada ushbu mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

Davlatimiz rahbari 2023-yil 22-dekabrda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqida umumta'lim maktablarida o'zbek tilini o'qitish samarasini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilishini, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ham xalqaro sertifikatga ega bo'lgan boshqa fan o'qituvchilaridan kam bo'lmagan miqdorda qo'shimcha haq bilan ta'minlanishi lozimligini ta'kidlagan edi. Shu maqsadda milliy sertifikatga ega bo'lgan ona tili va adabiyot fani o'qituvchilariga joriy o'quv yilidan boshlab 50 foiz ustama to'lanadi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti qoshidagi Davlat tili ish yuritish asoslarini o'rganish va malaka oshirish markazi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bugun vazirlik, idora va tashkilotlar xodimlari o'zbek adabiy tili me'yorlari va imlo qoidalarini bo'yicha muntazam o'qitilmoqda. Quvonarlisi, oliygo'hada tashkil etilgan "O'zbek maktabi"da yuzlab xorilik fuqarolar ona tilimiz va milliy madaniyatimiz asoslarini katta qiziqish bilan o'rganmoqda. "O'zbek maktabi" faoliyatini kuzatib xursand bo'laman. Bir vaqtlar ona tilimizda gapirishga qo'rqar edik. Mana, bugun uni o'zga millat vakillariga o'rgataymiz. Asosiysi, ular boy tilimizga katta qiziqish bilan qaramoqda. Buni o'zbek tilini o'rganish geografiasini kengaytirish ham ko'rib mumkin. Xususan, o'zbek tili AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning 60 ga yaqin universitet va 100 dan ziyod maktabida o'rganilmoqda.

Islohotlar samara berishi uchun barchamiz mas'ulmiz

"Etnologiya" tillar katalogida 2022-yilda 142 til oilasiga mansub 7151 til qayd etilib, ularning faqat 95 tasi davlat tili maqomiga ega ekanini quyidagidek. Bu umumiy miqdorning 1,3 foizini tashkil qiladi. Demak, Yer yuzidagi 98,7 foiz til o'z hududida davlat tili maqomiga ega emas. Anglaganingizdek, mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va ahamiyatini oshirish hamda zamon talablari asosida rivojlantirish masalasiga millat ruhini saqlab qolish, yorug' kelajagimizni ta'minlashning eng muhim omili deb qarashimiz zarur.

Bu boradagi islohotlar o'z mevasini berishi uchun til oldidagi mas'uliyat faqat tilshunoslarning emas, butun millatning ishi ekanini tushunishimiz kerak. Zero, Prezidentimiz BMT minbaridagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, "Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur. Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o'rganishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Toki bolalarimiz o'zbek tilida ravon o'qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo'lib yetishsin".

"OMMAVIY DIKTANT" AKSIYASI
O'ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMINING AJRALMAS MURVATI

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Ommaviy diktant" aksiyasi o'tkazildi. Tadbir Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti, O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamkorligida tashkil etildi.

Aholi, ayniqsa, yoshlar orasida yozma savodxonlik madaniyatini keng targ'ib qilish, davlat tiliga hurmat hissini kuchaytirish, uning ijtimoiy mavqei mustahkamlash hamda o'zbek tili ta'limni takomillashtirishga qaratilgan ushbu ijtimoiy-talimiy aksiyada nafaqat talabalar, balki imlo savodxonligi bo'yicha bilimni sinovdan o'tkazish istidagi o'z ko'plab yurdodsharimiz ishtirok etdi.

— Bugun tilimiz kelajagi xususida bosh qotirishimiz, boy ichki imkoniyatlar, uzoq tarixi va ulkan adabiy, madaniy merosi xususida gapirib ado qilolmaydigan nutqlarimiz har qachongidan zarur, — deydi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi rahbari Inomjon Azimov. — Ayni damda ziyolilar, tilshunos, adabiyotshunos, olim, adib, tarjimonlardan o'zbek tilini ko'proq, chiroyliroq, mazmunliroq qo'llash, davlat tilida o'qish, ko'rishga arziqli kontent yaratish mas'uliyatini his etishini so'rab qolam. Chunki bu hozir muhim masala bo'lib turibdi. Aksar yaxshi kitoblar chet tillarda bo'lsa, tarjima qilinmasa, bola kelajakda axborotni qayerdan oladi deb o'ylaymiz. Kompyuter va mobil telefonlar dasturi qisman o'zbekchallashtirilgan, dunyo tilidan ona tilimizga tarjimalar zo'r, atamalar qoniqarli darajada ishlanmagan, qisqasi, o'zbek maktablarida o'qigan bolalar uchun keyinchalik rivojlanish imkoniyati kam deb hisoblaymiz. Shu muammoga yechim sifatida

Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi tashabbusi bilan Tilbilg.uz sayti yaratildi. Ushbu sayt yozma savodxonlik madaniyatini targ'ib qilish, o'zbek tiliga qiziqishni yanada oshirish, uning ijtimoiy mavqei mustahkamlash hamda o'zbek tili ta'limni takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy platformadir. Istalgan paytda platformada ro'yxatdan o'tishingiz va sahifadagi o'tizdan ortiq diktant mavzularidan birini tanlab yozish orqali savodxonligingizni tekshirishingiz mumkin. Ko'pchilik tadbirbizlikni yomon ko'radi. Unda arziqlik g'oya bo'lmaydi, hammasi ko'zbo'yamachilik uchun qilinadi deb o'ylaydi. Bugun "Ommaviy diktant" aksiyasi hisobot qog'ozini nashrdagi hissiz raqamlar bilan to'lishi uchun emas, balki ommaning savodxonligini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun o'tkazilmoqda. Maqsadimiz — o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, millat farzandlarining yozma savodxonlik darajasi, til me'yorlari, o'zbek tilining tuzilishi bo'yicha amaliy bilim, ko'nikma va mahoratini tizimli oshirib borishdan iborat.

— Shaxsan men uchun savod juda muhim. Insonning yozgan to'rt qator matnga qarab, savodi, dunyoqarashi, qancha kitob o'qiganini-yu qanday fikrlashi haqida bilib olish mumkin. Afsuski, hozir shu to'rt qatorida to'rtta xato chiqaypti, — deydi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

Azizbek YUSUPOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



O'zbekiston tashabbuslari amalda

XALQARO MAYDONDAGI TINCHLIK VA EZGULIK TARG'IBOTCHISI

Boshlanishi 1-betda



Ulug' ajdodlarimiz bu borada bizga ulkan meros qoldirgan. Undan to'g'ri va oqilona foydalanish orqali ajdodlarga munosib avlodni kamolga yetkazamiz. Buning uchun yurtimizda zarur poydevor tashlangan. Jumladan, keyingi yillarda ulamolarning merosini nafaqat asrab-avaylash, balki ularni ilmiy o'rganib, xalqimiz, dunyo ahliga yetkazish uchun jiddiy ishlar qilinayotib. Masalan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etildi. Ilmiy-ma'rifiy jihatdan g'oyat noyob bo'lgan Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati yo'lga qo'yildi. Albatta, bunday dalillarni uzoq sanash mumkin. Muddao shuki, endi ushbu markazlar kuchi, ilmiy salohiyatidan keng ko'lamda foydalanish fursati yetdi. Mazkur konferensiyadan ko'zlangan maqsad ham shunga qaratilgan. Ya'ni nufuzli xalqaro islom tashkilotlari rahbarlari, taniqli olim va ulamol, jamoat arboblari, tadqiqotchilarni ulug' maqsad yo'lida birlashtirish. Ular orqali jahon ilm-fani

va sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz merosini keng targ'ib etish. Natijada muqaddas islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish. Mazkur konferensiyaga Yer yuzida tinchlik-osoyshtalikni mustahkamlashga qaratilgan bilan ahamiyatli bo'ldi. Zero, global dunyoda islom dinini zamon bilan uyg'un va hamohang holda rivojlantirish davr talabi. Chunki manfaatlar to'qnashuvida ma'naviy poklikni asrash, g'oyaviy tahdidlarga munosib javob bera olish oson kechmaydi. Islom esa tom ma'noda ezgulik, insonparvarlik dini. Konferensiyada shu kabi masalalarni o'zida qamrab olgan muhim mavzular muhokama etildi. Nihoyada esa "Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzusidagi xalqaro konferensiyani yakuniy deklaratsiyasi qabul qilindi. Yangi O'zbekiston xalqaro maydonda ezgulik targ'ibotchisi sifatida tanilmoqda. Buni ushbu konferensiyada ishtirok etgan hurmatli mehmonlarimiz ham e'tirof etdi.



Hakim Yo'ldoshev olgan suratlar.

So'z konferensiyasi ishtirokchilariga



Jengiz TOMAR,
Islom hamkorlik tashkilotining Islom tarixi, san'ati va madaniyatini tadqiq etish markazi (IRCICA) bosh direktori o'rinbosari:

— Bugun musulmon Sharqida yana bir Renessans tez fursatda sodir bo'lsin. O'zbekiston hozirga qadar Birinchi va Ikkinchi Renessansga guvoh bo'lgan tabarruk zamin. Shu bois, dunyoning istalgan burchagida islom haqida so'z ketganda, O'zbekistondan chiqqan buyuk allomalar — Imom Moturidiy, Imom Nasafiy, Imom Termiziy birinchi galda tilga olinadi. Bu o'lkani ilm-ma'rifat tarixidagi tamal toshi, shubhasiz, mustahkam.

Xalqaro anjuman muhim ahamiyatga ega. Negaki taraqqiyot va ilm-fan rivoji uchun tinchlik hamisha ustuvordir. Qolaversa, xalqlarimizning o'zligini anglashi, boy tarixiy manbalarini o'rganishi, olimlarning o'zaro muloqoti borasida ayni shunday anjumanlarning o'ri katta. Alohida qayd etish kerakki, Prezident Janobi Oliyilarning ilmiy-amaliy konferensiyasi ishtirokchilarga yo'llagan tabrigi anjumanning naqadar ahamiyatli ekanini bildiradi. Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mazkur tashabbusini faqat olqishlash lozim.



Kamoliddin MARJUNY,
Sulton Sharif Ali islom universiteti professori (Bruney sultonligi):

— Tarixan islom sivilizatsiyasi markazi bo'lib kelgan O'zbekiston zaminida o'tkazilayotgan "Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzusidagi xalqaro konferensiyani turli tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi sharoitda g'oyat dolzarb va ahamiyatli hisoblayman.

Din haqidagi noxolis va xato tushunchalarni, ayniqsa, ekstremistik va radikal g'oyalarni bartaraf etish, yoshlar ongiga salbiy ta'sirining oldini olishda olimlar, targ'ibotchilar va soha mutaxassislarining o'rni katta. Ular islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berishi, yot g'oyalarga ilmiy asoslangan raddiya tayyorlashi, sog'lom va mo'tadil qarashlarni keng yoyishi zarur.

Bugungi globallashgan jamiyatda yoshlarga katta e'tibor qaratish lozim. Ularning bilimi va



dunyoqarashini doimiy oshirib borish, tanqidiy fikrlash ko'nikmasini yuksaltirish zarur deb hisoblayman. Ushbu konferensiyaga qayd etilgan dolzarb muammolarning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim platforma vazifasini bajarishiga ishonaman.

Sayful ASRIY,
Rossiyadagi Bulg'or islom akademiyasi ilohiyot kafedras o'qituvchisi, islom huquqshunosligi va zamonaviy fatvolar bo'yicha mutaxassis:

— Yurtimizda o'tayotgan "Islom — tinchlik va ezgulik dini" anjumani barcha ishtirokchilarini tarixiy voqea bilan chin dildan qutlayman.



Olim sifatida yoshlarga, ushbu anjumanni kuzatib borayotgan sog'lom fikri kishilarga aytar so'z shuki, mutaxassis fikrlarga ergashayotganlar bilib qo'yishki, islom — ezgulik dini. U hech qachon qon to'kishga, zo'ravonlik qilishga undamaydi. Muqaddas islom nomidan amalga oshirilayotgan xunreziqlarning buyurtmachilari mo'minlardan emas.

Naurizbay TAG'AN o'g'li,
Qozog'iston musulmonlari diniy idorasi raisi, bosh muftiysi:

— Bu muhtasham anjuman nafaqat musulmonlar, balki ular bilan diniy bag'rikenglik tamoyillari asosida umrguzaronlik qilayotgan barcha uchun g'oyat muhim va aytirliq.

Islom barcha xalqlarni birlikka, birdamlikka chorlaydi. Musulmonlar orasida tarqalgan "Assalому alaykum" so'zi ham "Sizga tinchlik, omonlik tilayman" deganidir. Shu ma'noda, islom nomi bilan bog'lanayotgan xunreziqlar va noxush hodisalar zamirida islomga xos bo'lgan e'tiqod yo'q, desak aslo yangilishmagan bo'lami.

Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida islom diniga e'tiqod qilib keladi. Bu ezgu din Markaziy Osiyoda yashayotgan xalqlarning urf-odatlariga chuqur singib ketgan va bunda hech qanday g'alizlik kuzatilmaydi. Bunga sabab esa sof islom aqidasi, uning ma'rifati, insonparvarligiyu ezgu g'oyalarni botil aqidalardan oriflik bilan ajratib bera olgan ulamolarning aynan Markaziy Osiyodan ko'plab yetishib chiqqanidir. Bu ezgu ta'limga odat qaytishni sari fitnalarga ko'paytgan bor gap. Shu bois, ota-bobolarimizning to'g'ri e'tiqod borasidagi tavsiyalari va ilmiy merosiga suyanishimiz shart.

Bugun axborot globalshuvi tufayli botil g'oyalar bilan chalg'iyotgan yoshlar kam emas. Ularga e'tiqod nuqtayi nazaridan to'g'ri

Islom ma'rifati, uning insonparvarlik g'oyalarni, bag'rikenglik borasidagi tavsiyalarini o'rganmoqchi bo'lganlar bug'unchi toifalarning yetakchilariga emas, sof tafsiarga, Rasulimiz sallolahu alayhi vasallamning sunnatlariga tayangan holda saboq berayotgan, biror yurtda fitnaga yoki ittiloflarga sabab bo'lmagan hur fikrli olimlarimizning fikrlariga e'tibor qaratsin. Chunki mutaxassis fikrlarga qo'shilishning oqibati yaxshilik bilan tugamaydi. Kim dinda chuqur ketsa, u adashadi.

Alloh taolo O'zining kalomi Qur'onning "Quraysh" surasida quraysh qabilasiga tinchlik, omonlik bergani va islom dinining muhabbatga va salomatlikka chorlashi haqida xabar bergan.

Islom nomidan internet orqali tarqatilayotgan fitnalardan o'z yurtimiz ulamolarning fatvolariga tayangan, oqilona pand-nasihatlardan bahramand bo'lgan holda omondan bo'lasiz. Bugungi anjumanda ham, bundan keyin ham sog'lom fikrli islom ulamolari internetdagi mutaassiblarning fikrlari xato va asossiz ekanini bot-bot takrorlaydi.

Jahondagi bir qancha mamlakatlarni katta tashvishga solayotgan fitnalarga kuch bilan emas, ma'rifiy yondashuv bilan yechim topishni taklif etgan O'zbekiston Prezidentining barcha chaqiriqlarini biz, olimlar bir ovozdin qo'llab-quvvatlaymiz. Bir so'z bilan aytganda, bu chaqiriq nafaqat islom ummati, balki butun bashariyat uchun najot sadosidir.



ma'lumot berish, yoshlarni botil aqidalardan o'z vaqtda ogoh qilib borish, biz, ulamolarning vazifasidir. Alloh taolo o'z kalomida "Agar bilimaydigan bo'lsangiz, zikr ahllardan shu'rangiz", deb marhamat qiladi. Allohga shukrki, O'rta Osiyo xalqi islom olamiga tanilgan allomalari bilan faxrlanadi. Muqaddas kalomdagi "bilganlar" ham aslida shular.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, Sig'noqiy kabi allomalar haqni botidan ajratgan, ummatga to'g'ri yo'lni va islom ma'rifati ko'rsatib bergan zotlar edi. Mana shunday ajdodlarimizning mo'tadil yo'li esa yoshlarni radikal g'oyalardan asrashda juda muhim. Bugungi anjuman aynan shu haqiqatni anglatishga xizmat qilmoqda.

Ahmad ol QOSIMIY,
"HEDAYAH" zo'ravon ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markazi ijrochi direktori:

— Markazimiz nomidan ushbu muhim anjuman uchun samimiy minnatdorligimni bildiraman.

Bugungi tahlikali davrda diniy noto'g'ri talqin qilish oqibatida ko'plab ziddiyatlar kelib chiqayotgani, hatto xunreziqlar sodir bo'layotgani achinarli, albatta. Islom nomidan ish tutayotgan bug'unchi toifalar uchun diniy e'tiqod to'la shakllanmagan, e'tiqod borasida yangilishgan yoshlar tayyor o'lja yoki dastyor vazifasini o'tayotir. Aynan shunday qarantmog'imiz mumkin bo'ladi. Islom nomidan ish tutayotgan bug'unchi toifalar uchun diniy e'tiqod to'la shakllanmagan, e'tiqod borasida yangilishgan yoshlar tayyor o'lja yoki dastyor vazifasini o'tayotir. Aynan shunday qarantmog'imiz mumkin bo'ladi. Islom nomidan ish tutayotgan bug'unchi toifalar uchun diniy e'tiqod to'la shakllanmagan, e'tiqod borasida yangilishgan yoshlar tayyor o'lja yoki dastyor vazifasini o'tayotir.

Shaxsan men buning sababini ilmsizlik va diniy to'g'ri anglamaslikda deb

Nazir MUHAMMAD AYYOD,
Misr Arab Respublikasi bosh muftiysi:

— Mazkur konferensiyasi tinchlik va ezgulik yo'lidagi muhim anjumanlardan biri bo'ldi. Bu yurtda necha asrlardan beri islom dini ravnaqiga hissa qo'shgan buyuk allomalar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy, Imom Moturidiy kabi zotlar yetishib chiqqan. Ular islom olamida yorqin iz qoldirgan siymolardir. Qoldirgan ilmiy meroslari esa islom haqiqatini ifodalagan. Konferensiyani ulamolarning yurtda o'tkazilishida ham chuqur ma'no bor. Islom dinining tinchlik va osoyshtalikni, bag'rikenglikni targ'ib qilishida ushbu yetuk ulamolara alohida o'rin tutadi.

Misr va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalar qadim tarixga borib taqaladi. Bugun bu davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga urg'u beradigan bo'lsak, u mustahkam asoslarga barpo etilganini ko'ramiz. Bu borada bir qancha yo'nalishlarga e'tibor qarantmog'imiz mumkin bo'ladi. Xususan, Misr birinchilardan bo'lib O'zbekiston mustaqilligini e'tirof etib, elchixonasini bu yurtda ochishga shoshilgani va 1994-yilda esa Misr zaminida O'zbekiston elchixonasi ochilganini qayd etish dardkor.

Keyingi yillarda ushbu ikki davlat o'rtasidagi ilmiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishni ikki davlat rahbarlarining tashriflari orqali bilishimiz mumkin. 2018-yilda Misr Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi janoblari



bilaman. Yoshlarni bunday tahdidlardan himoya qilishning bir qancha yo'llari mavjud va ularning avvalida, aytganimdek, ilm yotadi. O'zbekiston kabi buyuk allomalarga beshik bo'lgan muqaddas yurtda bo'lib o'tayotgan ushbu anjuman ulkan haqiqat eshigiga yo'llovchi, botil yo'ldan qaytaruvchi chin islom ma'rifati anglashning saodatini tushunib olishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, ushbu anjumanni ezgulik anjumani deb atagim keladi.



O'zbekistonga tashrif buyurdi, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janoblari Misrga bordi. Shubhasiz, bu tashriflar ikki tomonlama do'stlik aloqalari rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Men to'xtalib o'tmoqchi bo'lgan yana bir jihat O'zbekistonda keng tarqalib, namoyon bo'la boshlagan diniy-ma'rifiy sohadagi izchil o'zgarishlardir. Bu islohotlar, ilmiy-intellektual harakat Prezident yuritayotgan siyosatda ochiq-oydin o'z ifodasini topgan. Bu esa islom sivilizatsiyasi merosini qadrlash, ilm-fan va ulamolarga ehtirom ko'rsatish orqali yanada qadrlanib boradi.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur anjumanga tashrif o'laroq, O'zbekiston Prezidenti bu tabarruk zaminda ma'naviy-ma'rifiy, diniy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishi, islom merosini boyitish, ulamolarga yuksak ehtirom ko'rsatishining guvohi bo'ldik.

Sahifani "Yangi O'zbekiston" muxbiri Jonibek ALLJONOV tayyorladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 3628. 41218 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Munajat Mo'minova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy